

“RO‘YXATGA OLINGAN”

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Turizm va sport vaziri



A.A.Abduxakimov

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi
“Sport va turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi”
Davlat unitar korxonasi
U S T A V I

Toshkent – 2021-yil

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Ustav “Sport va turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” Davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda - Korxona)ning huquqiy maqomini, uning filiallari va vakolatxonalarini tashkil etish va ularning faoliyati xususiyatlarini, muassisning, ijro etuvchi organning huquq va majburiyatlarini, Korxona va muassis o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni belgilaydi.

2. Korxona Ustavi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6169-son Farmoni, 2021-yil 6-apreldagi “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5054-sonli Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 433-sonli qarori va 2006-yil 16-oktabrdagi “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 215-sonli qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Korxona “Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” davlat unitar korxonasi hamda “Sertifikatsiyalash va kompyuterlashtirish markazi” davlat korxonasining qayta tashkil etishga qadar uchinchi shaxslar oldida yuzaga kelgan huquqlari va majburiyatlarining to‘laqonli huquqiy vorisi hisoblanadi.

4. Korxonaning muassisasi O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi (kelgusi matnda “Muassis” deb yuritiladi) hisoblanadi.

5. Korxona o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Oliy Majlis Palatalarining qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Muassisning buyruq va farmoyishlari, mazkur Ustav va boshqa qonun hujjalari amal qiladi.

6. Korxona davlat mulkidagi, o‘ziga xo‘jalik yuritish huquqi asosida berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir, u o‘ziga birkitelgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o‘z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (vakolatli davlat organi - muassisning) topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi.

7. Korxonaning to‘liq nomlanishi:

- davlat tilida – O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi qoshidagi “Sport va turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” davlat unitar korxonasi;

- rus tilida – Государственное унитарное предприятие «Центр сертификации спортивных и туристских услуг» при Министерстве Туризма и спорта Республики Узбекистан;

- ingliz tilida – State Unitary Enterprise “Center for certification of sports and tourism services” under the Ministry of Tourism and sports of the Republic of Uzbekistan.

8. Korxonaning qisqa nomlanishi:

- davlat tilida – «STXSM» DUK;
- rus tilida – ГУП «ЦССТУ»;
- ingliz tilida – «CCSTS» SUE.

9. Korxona alohida mol-mulkka, mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan valyuta hisob raqamlariga, ramzi, shtamplari va blankalariga, o‘zining firma nomi davlat tilida yozilgan muhrga ega bo‘ladi.

10. Korxona qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

11. Korxona Muassis roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq tijorat tashkilotlari, shuningdek ularda yuridik shaxslarning qatnashishiga yo‘l qo‘yiladigan notijorat tashkilotlar qatnashchisi (a’zosi) bo‘lishi mumkin.

12. Korxona boshqa davlat korxonasi muassisi bo‘lishga haqli emas.

13. Korxonaning pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100015, Mirobod tumani, Oybek ko‘chasi, 18-uy.

14. Korxonaning faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan.

II. KORXONA FAOLIYATINING ASOSIY MAQSADLARI VA FAOLIYAT TURI

15. Korxona faoliyatining asosiy maqsadlari turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va turistik industriya obyektlarini tasniflashni amalga oshirish va sport pasportini rasmiylashtirishdan iborat.

16. Korxona maqsadlariga muvofiq quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- joylashtirish vositalari, turoperatorlik va boshqa turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish ishlarini olib borish;
- normativ hujjatlar talablariga sertifikatlashtirish obyektining muvofiqligini tasdiqlash maqsadida davriy inspeksiya nazoratini o‘tkazish;
- turistik xizmatlarni ko‘rsatish jarayonini va undan turistlarning qoniqishini monitoring qilish maqsadida “Yashirin baholash”larni o‘tkazish;
- turar-joylarni ijaraga berishning Yagona elektron reestrini yuritish va ularni sertifikatlashtirish;
- turizm va sport sohasidagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish me’yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish;
- standartlashtirish va sertifikatlashtirishga oid attestatsiya va akkreditatsiyalarga hujjatlarni tayyorlash;
- respublikada sportchilarning sport pasportlarini yuritish, berish, almashtirish (yangisini berish), ularni hisobga olish yagona tizimining amal qilishini ta’minlash;

- turizm va sport sohasida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar bilan yaqindan hamkorlik olib borish. Xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tashkil etish.

17. Korxona O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirishga haqlidir.

18. O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi, bunday litsenziya olingandan keyin amalga oshirilishi mumkin.

III. KORXONA FAOLIYATINI BOSHQARISH

19. Muassis qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

- korxona faoliyatining maqsadi, predmeti, turlarini belgilash;
- korxona ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- korxona direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muddatidan oldin to'xtatish;
- korxonani qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash;
- korxona mulkiga oid bitishuvlarni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilish;
- korxonaning ortiqcha, foydalanilmayotgan yoxud belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan mulkini olib qo'yish va ularni tasarruf etish;
- zarurat bo'lganda Vazirlar Mahkamasiga korxonani xususiy lashtirish yoki davlat tasarrufidan chiqarish bo'yicha taklif kiritish;
- korxonaga yetkazilgan zararlarni undirish to'g'risida korxona rahbariga nisbatan da'vo taqdim etish;
- davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga barcha soliqlar va boshqa to'lovlari to'langanidan so'ng korxona tasarrufida qoladigan sof foydaning bir qismi yoki barchasini ushbu Ustavga muvofiq qo'lga kiritish.

20. Muassis quyidagilarga majbur:

- korxona rahbarini tayinlash, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq u bilan mehnat shartnomasi tuzish;
- korxona davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab uch oy mobaynida korxonaning ustav fondini unga davlat mulkini tezkorlik bilan boshqarish uchun berish yo'li bilan shakllantirish;
- har yili korxonaning biznes-rejasini tasdiqlash, har chorakda ijro etuvchi organning uning bajarilishi haqidagi hisobotini eshitish;
- bozor qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ming baravari miqdoridan oshadigan mol-mulkini ushbu Ustavning 25-bandiga muvofiq mulkni tasarruf etish uchun davlat korxonasining ijro etuvchi organiga ruxsatnomalar berish to'g'risidagi qarorni tegishli ravishda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishish;
- korxonaga berilgan davlat mulkidan maqsadli foydalanishini va saqlanishini, shuningdek uning begonalashtirilishini nazorat qilish.

IV. KORXONANING MULKI

21. Korxona ustav fondining miqdori 817 115 800 (sakkiz yuz o'n yetti million bir yuz o'n besh ming sakkiz yuz) so'mni tashkil etadi.

22. Korxonaning mulki:

- muassis tomonidan Korxonaga tezkor boshqarish huquqi bilan biriktirilgan davlat mulklari;

- korxonaning o'z faoliyatidan olgan daromadlari;

- korxonaning boshqa xo'jalik faoliyati ustav fondidagi ulushi bo'yicha dividend;

- qonun hujjatlariga zid bo'lмаган boshqa manbalar hisobiga shakllantiriladi.

Korxona mulkining qiymati korxonaning mustaqil balansida aks ettiriladi.

23. Tashkil etilgan korxonada davlat mulkini tezkor boshqarish huquqi topshirish-qabul qilib olish dalolatnomasi korxona rahbari va Muassis tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab paydo bo'ladi.

24. Korxona mulki bo'linmas mulk hisoblanadi va qo'shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan, Korxona xodimlari o'rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

25. Korxona mulkini tasarruf etish quyidagi hollarda Korxonaning ijro etuvchi organi tomonidan Muassis bilan kelishgan holda amalga oshiriladi:

- asosiy vositalarni sotish, ularni ijaraga topshirish;

- mulkni xo'jalik jamiyati ustav fondiga ulush sifatida qo'shish;

- xo'jalik jamiyatlarining aksiyalari (ulushlari)ni sotib olish;

- xo'jalik jamiyatlaridagi Korxonaga tegishli aksiyalar (ulushlar)ni sotish;

- mulkni Korxona faoliyati maqsadlariga muvofiq bo'lмаган boshqacha tarzda tasarruf etish.

26. Korxona ustav fondining o'n foizidan kam bo'lмаган miqdorda zaxira fondi tuzilishi mumkin. Korxonaning zaxira fondi korxona ustav fondida belgilangan miqdorga yetganiga qadar har yili sof foydadan majburiy ajratmalar o'tkazish orqali tashkil etiladi. Har yilgi ajratmalarning miqdori korxona ustavida belgilangan miqdorga yetganiga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

27. Korxona ustav fondi miqdorini kamaytirish yoki ko'paytirish Muassis qaroriga asosan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

V. KORXONA RAHBARINING MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

28. Korxona rahbari (kelgusi matnda - Direktor) korxonaning yakka ijro etuvchi organi hisoblanadi va korxona oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini tashkil etadi, korxona nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, korxona nomidan bitishuvlarni belgilangan tartibda amalga oshiradi, xodimlarni ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, o'zgartiradi va to'xtatadi, buyruqlar chiqaradi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi.

Korxona xodimlarining shtat bo'yicha soni va ularning ish haqi miqdorlari rahbar tomonidan Muassis bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

29. Direktor Muassis oldida korxona ustavida belgilangan tartibda korxona faoliyati to'g'risida hisob beradi.

30. Direktor o'z huquqlarini amalga oshirishda va vazifalarini bajarishda korxona manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi kerak hamda budgetga va davlat maqsadli jamg'armalarga to'lovlarning, ish haqining o'z vaqtida to'lanishi, mehnat huquqlari va munosabatlaridan hamda ularga tenglashtirilgan to'lovlardan kelib chiqadigan barcha talablarning qondirilishi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojlar uchun pul mablag'larining o'tkazilmaganligi, o'zining harakati (harakatsizligi) tufayli, shu jumladan korxonaga berilgan davlat mulki yo'qolgan taqdirda, davlat korxonasiga yetkazilgan zararlar uchun qonun hujjalarda belgilangan tartibda javob beradi.

VI. KORXONANING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

31. Korxona Muassis bilan kelishuv bo'yicha, qonun hujjalari talablariga rioya qilgan holda filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi mumkin.

Filial yoki vakolatxona tashkil etilgandan keyin bir hafta muddatda davlat korxonasi bu to'g'rida O'zbekiston Respublikasining Davlat aktivlarini boshqarish agentligini xabardor qilishi shart.

32. Korxonaning filialari va vakolatxonaları ularni tashkil etgan korxona nomidan, korxona tomonidan tasdiqlangan Nizomlar asosida faoliyat ko'rsatadi va uni tashkil etgan korxona mulkiga ega bo'ladi.

33. Korxona filiali yoki vakolatxonasi rahbari korxonaning direktori tomonidan Muassis bilan kelishgan holda tayinlanadi va uning ishonchnomasi asosida faoliyat ko'rsatadi. Filial yoki vakolatxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to'xtatilgan taqdirda ishonchnoma korxona direktori tomonidan bekor qilinishi kerak.

VII. DAROMAD (FOYDA)NI TAQSIMLASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI

34. Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalariga barcha soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlardan keyin korxonada qoladigan sof foyda Muassisning qaroriga binoan foydalilanildi.

Korxona direktori sof foydani taqsimlash bo'yicha Muassisga taklif kiritishga haqli.

35. Korxona Muassis tomonidan tasdiqlanadigan miqdorlarda zaxira fondi va boshqa fondlarni tashkil etishi mumkin.

Korxonaning xo'jalik faoliyati natijasida kelib chiqqan zararlarni qoplash ushbu maqsadlarda tashkil etilgan zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

VIII. XODIMLAR MEHNATIGA HAQ TO'LASH VA IJTIMOIY TA'MINOT

36. Korxona unumli mehnat uchun sharoitlar yaratadi, mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka, mehnat muhofazasi qoidalari va normativlariga, texnika xavfsizligiga, davlat ijtimoiy sug‘urtasiga, ichki mehnat tartibi qoidalariга rioya etilishini ta’minlaydi.

37. Direktor korxona nomidan xodimlarni mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qiladi.

38. Korxona xodimlarining mehnatiga haq to‘lash korxona shtat jadvali bo‘yicha (fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar bo‘yicha yo‘llanadigan xodimlar uchun o‘zar kelishuvga ko‘ra) mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasiga asosan har bir lavozim bo‘yicha o‘rnatilgan razryad bilan belgilanadi.

Korxona xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, mehnatini rag‘batlantirish, mehnat faolligini va samaradorligini oshirish, hamda Korxonaga malakali mutaxassislarni jalb etish maqsadida Muassis bilan kelishgan holda ustama va qo‘srimcha to‘lovlardan o‘rnatadi.

IX. KORXONANING JAVOBGARLIGI

39. Korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mulk bilan javob beradi.

40. Korxona Muassisning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

41. Korxonaning filiali va vakolatxonasi majburiyatlari bo‘yicha ularni tashkil etган korxona javob beradi.

X. KORXONA FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

42. Korxona hisobot davri tugagach, vakolatli organlarga moliyaviy hisobotni va ro‘yxati qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi hamda hujjatlarning saqlanishi va ularning belgilangan tartibda davlat tomonidan saqlashga berilishi uchun javob beradi.

43. Korxona faoliyatini xo‘jalik yurituvchi organ sifatida nazorat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Muassis va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

XI. KORXONANI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

44. Korxona muassis qaroriga ko‘ra, tegishli ravishda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishgan holda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yoxud sud qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.